

FUQAROLAR YOSHIGA DOIR PENSIYA TA'MINOTINING TASHKILY IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

BERDIYEVA E'ZOZA ALI QIZI

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magestiri

ezozaberdiyevagmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati va fuqarolarning yoshga doir pensiya ta'minotining tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan chora tadbirlar izchiligini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab – quvvatlash, ularning daromadlarini inflatsiya darajasiga qarab indeksatsiyalab borish hamda tegishli ijtimoiy to'lovlar miqdorining minimal iste'mol xarajatlari qiymatidan kam bo'lmasligini ta'minlash maqsadimiz.*

***Kalit so'zlar:** Yoshga doir pensiya, avlodlar birdamligi, pensiya tizimi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, nogironlig pensiyasi, majburiy va ixtiyoriy O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi pensiya tizimi, byudjet tashkilotlari.*

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi.

Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga taalluqli huquqlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar. Respublika hududidan tashqarida

yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

(1-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi O'RQ-318-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2012-y., 1-son, 4-modda)

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar.

O'zbekistonda pensiyaning uchta turi mavjud. Bular:

- Yoshga doir pensiya
- Nogironlik pensiyasi
- Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi

Biz endi yoshga doir pensiyasiga to'xtalib o'tamiz

Yoshga doir pensiya olish huquqiga:

erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya

Pensiya tayinlash uchun (7-modda) yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu Qonun 37-moddasi birinchi qismining "a" — "g" va "k" bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

(8-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 18-martdagi O'RQ-922-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2024-y., 03/24/922/0224-son)

Imtiyozli shartlardagi pensiyalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga

ega bo'ladilar, chunonchi:

Yoshidan qat'i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlar.

Umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning .

Umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning.

. Yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar:

erkaklar — 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar — 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensiyani hisoblash uchun pensiyalarning quyidagi bazaviy miqdorlari belgilanadi: yoshga doir pensiyalar uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a'zosiga — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida, biroq qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorlardan kam emas;

har ikkala ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin yetimlarga) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga har bir

bola uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas.

Ish staji belgilangandan ko'p bo'lgan taqdirda qanday hisoblanadi?

Masalan, ayollarga pensiyaga chiqish uchun 20 yil staj talab qilinsa, xodimning ish staji 30 yilni tashkil qilsa, bunday holatda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga oshirish orqali pensiya hisoblanadi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o'tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda qayta hisoblanadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlash, ularning daromadlarini inflatsiya darajasiga qarab indeksatsiyalab borish hamda tegishli ijtimoiy to'lovlar miqdorining minimal iste'mol xarajatlari qiymatidan kam bo'lmasligini ta'minlash maqsadida:

2024-yil 1-sentyabrdan boshlab pensiyalar va nafaqalar miqdori 15 foizga oshirilsin.

2024-yil 1-sentyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida:

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori — oyiga 428000 so'm;

yoshga doir eng kam pensiya miqdori — oyiga 834000 so'm;

nogironlik pensiyalari, jumladan ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori — oyiga 920 000 so'm;

mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga 920 000 so'm;

Yoshga doir pensiya olish huquqiga: erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda; ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari

kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi
2. Tursunov J.P Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta'siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi. Tom 24 N6 (Економика и образования)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026" yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" gi farmoni (qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 21.04.2022) 06/22/ 113/0303 – son/
4. Mahmudjon Ziyodullayev Fuqarolarning ijtimoiy himoya qilishda davlat pensiya ta'minotining o'rni 2022 yil.
5. <https://lex.uz>
6. www.stat.uz